

Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti yig‘ilishining 1-BAYONNOMASI

Sanaqulov Sultonmurod Sarvar
o‘g‘li
Xalqaro Nordik Universiteti
s.sanakulov@nordicuniversity.org
+99897-900-02-16

Raislik qildi: E.Umarov	Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti dekani
Rais o‘rinbosari: S.Sanaqulov	Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti dekanat menejeri
Qatnashganlar:	Universitet dekan, dekan o‘rinbosarlari hamda tyutorlar.

Kun tartibi:

- 1. Talabalarning yashash joyidagi mahalliy inspektorlar bilan tanishish, to‘lov–kontrakt bo‘yicha qarzdorligi mavjud talabalarni to‘lov ogohlantirish to‘g‘risida.**
- 2. Talabalarning 1-semestr va 3-semestr yakuniy nazorat imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tganliklari to‘g‘risida dekan farmoyishi va o‘qishini ko‘chirgan yangi talabalarni buyruqlarini tayyorlash va guruhga biriktirish to‘g‘risida.**

1.Talabalarning yashash joyidagi mahalliy inspektorlar bilan tanishish, to‘lov –kontrakt bo‘yicha qarzdorligi mavjud talabalarni to‘lovlarini amalga oshirish bo‘yicha ogohlantirish to‘g‘risida.

Xalqaro Nordik universiteti Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti dekani **E.Umarov** talabalarning eski o‘quv yilidagi kontrakt qarzdorilgi bo‘yicha ularni ogohlantirish masalalari hamda yangi o‘quv yili uchun to‘lov-kontrakt shartnomasini o‘z vaqtida amalga oshirish yig‘ilish ishtirokchilari **Tyutorlarga** yuklansin va topshiriqning yakuniy muddati **01.03.2024** etib belgilansin.

Buyruq ijrosini nazorat qilish va ish jarayonlari bo‘yicha hisobot berish **J.Xoshimov** zimmasiga yuklansin.



2.Talabalarning 1-semestr va 3-semestr Yakuniy nazorat imtihonlaridan muvoffaqiyatlari o'tganliklari to'g'risida dekan farmoyishi va perevod qilingan yangi talabalarini buyruqlarini tayyorlash va guruhga biriktirish to'g'risida.

Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti dekani **E.Umarov** tomonidan yig'ilishda **1-semestr** va **3-semestr** o'quv yili yakunida yakuniy nazorat imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar to'g'risida dekan farmoyishini tayyorlash hamda o'qishni uzurli 2 sababga ko'ra qishki ta'lim davrida ko'chirgan talabalarini o'qishga qabul qilinganliklari bo'yicha buyruq chiqarish va akademik guruhga qo'shish ishlari Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti dekani muovini **J.Xoshimov** zimmasiga yuklansin.

**Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olinib yig'ilish,
QAROR QILADI:**

1. Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti dekani muovini **J.Xoshimovga kursdan-kursga ko'chirish buyruqlari va dekan farmoyishini tayyorlash vazifasi yuklansin.**

2. Guruh tyutorlari kontrakt-to'lovdan qarzdorligi mavjud talabalrani ogohlantirish vazifasi yuklansin.

3. Ushbu majlisda yuklatilgan vazifalar ijrosini nazorat qilish Iqtisodiyot pedagogika fakulteti dekani muovini **J.Xoshimov zimmasiga yuklansin.**